UO‘K 94 (575.1)

TURKISTON ASSRDA AGRAR SOHADAGI O‘ZGARISHLAR: YER-SUV ISLOHOTI VA MULKDORLARGA QARSHI KURASHNING BOSHLANISHI

Sh.K. Xoshimjonov

Maqolada Turkistonda sovet hokimiyati o‘rnatilgandan keyin agrar sohada boshlangan o‘zgarishlar, hukumat uchun asosiy raqobatchi sifatida ko‘rilgan yer egalari, mulkdorlarga munosabat, ularning yerlari tortib olinishi va buning oqibatlari birlamchi arxiv manbalari asosida tahlil qilingan. Shuningdek, sovet hukumati tomonidan mahalliy aholining ijtimoiy ahvoli, oziq-ovqat zaxirasi rekvizitsiya qilinishi, yevropalik va mahalliy yer egalarining yerlari tortib olinishi, bunda hatto kam yerli kichik mulkdorlarning yerlariga ham daxl qilinishi, mulkdorlardan majburiy yig‘imlar undirilishi kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *Turkiston ASSR, “Yer to‘g‘risida”gi dekret, natsionalizatsiya, mulkdor, yer-suv islohoti, xususiy mulk, ekspluatator, yersiz dehqon, sinfiy kurash*.

В статье анализируются изменения в аграрном секторе после установления Советской власти в Туркестане, отношение к землевладельцам и собственникам, которые рассматривались как главные конкуренты правительства, конфискация у них земель и ее последствия на основе первоисточников архивных материалов. А также такие вопросы, как социальное положение местного населения, реквизиция Советским правительством продовольственных запасов, экспроприация земель европейских и местных помещиков, посягательство на земли мелких помещиков, взимание обязательных сборов с землевладельцы.

Ключевые слова: *Туркестанская АССР, Декрет “О земле”, национализация, собственник, земельно-водная реформа, частная собственность, эксплуататор, безземельный крестьянин, классовая борьба.*

Rossiyada, shu jumladan, Turkistonda ham 1917-yilgi Oktyabr to‘ntarishi orqali hokimiyatga kelgan sotsial-demokratlarning bolsheviklar fraksiyasi jamiyatni tubdan isloh qilish va “ekspluatator sinf”ni tugatishga qaratilgan yangi tuzum – sotsializm qurishni da’vo qilib, bunda o‘zlari uchun eng asosiy dushman sifatida mulkdor va tadbirkor qatlamni ko‘rdi. Dastlabki yillarda Markazda bo‘lgani kabi Turkiston o‘lkasida ham endigina rivojlanib kelayotgan kapitalistik munosabatlarni yo‘q qilish, aslida tabiiy jihatdan noteng ijtimoiy qatlamlarni tugatish uchun qattiq kurash olib borildi, biroq bu jarayon oson kechmadi. Turkiston o‘lkasi xalqlari uchun “sinfiy kurash”, “proletariat diktaturasi”, “ekspluatatorlarning mulklarini tortib olish orqali ijtimoiy adolatni tiklash” haqidagi tushunchalar butkul begona edi.

Umuman, Lenin boshchiligidagi bolshevik rahbarlar Turkiston masalasida ikkilanishlar girdobiga tushib qoldi. Xususan, bir tomondan bolsheviklar mustamlaka tuzumni qoralab, mustamlaka xalqlar “o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqi”dan foydalanishi lozimligini tinmay ta’kidlar, mustamlakachilikni qoralardilar. Lekin o‘sha davrda podsho Rossiyasi davrida ko‘chirilganlarning hali ham mahalliy aholi yerlarini ochiqdan-ochiq tortib olish holatlari mavjud bo‘lib, mustamlakachilik va etnik ustunlikni mustahkamlashga urinish ko‘rinib turardi. Ikkinchi tomondan esa, Rossiya sanoatining tayanchi bo‘lgan to‘qimachilik sohasi kapitalistik davlatlar bilan aloqalar uzilgan vaqtda Turkiston paxtasisiz to‘xtab qolardi. Oqibatda ikkinchi sabab ustun keldi – Turkistonda avtonom sovet respublikasi tuzilgani e’lon qilinsa-da, amalda u mustamlaka ko‘rinishida qoldi, imperalistik tuzum saqlanib qoldi. Yevropa millatiga mansub ko‘chirib keltirilganlarning kambag‘al qismi sovetlarga kirib, hokimiyatni egalladilar va sinfiy ekspluatatsiyani tugatish bahonasida mahalliy

aholi ustidan nazoratni qo‘lga oldilar. Ularning bu boradagi ishlari hali davlat to‘ntarishi amalga oshirilmasdan avvalroq – 1917-yil sentyabrda boshlangandi.

Dastlab, oziq-ovqat va moddiy boyliklarni tortib olish, “burjuylar”ga soliq solish inqilobiy faoliyatning eng keng tarqalgan ko‘rinishi bo‘lib qoldi. Soldat va ishchilar Eski shaharga bostirib kirib, olibsotar chayqovchilardan mahalliy g‘allani musodara qilarkan, bu faoliyat ochiqdan-ochiq etnik tus olgandi [1. B. 73].

Turkiston o‘lkasi xalqlari tarixini ham butkul boshqa o‘zanga burib yuborgan ushbu voqealarni shartli ravishda sotsialistik tuzumga o‘tish davri deb belgilash ham mumkin. Ushbu o‘tish davrining o‘lkamiz sharoitidagi muhim jihatlaridan biri, albatta, yer masalasi bo‘ldi. Sovetlar Turkistonda hokimiyatga kelgan vaqtdayoq Petrogradga o‘z vakilini yuborgan bo‘lsada, amalda markazdan deyarli mustaqil siyosat olib borilgan Turkistonda yerlarni davlat ixtiyoriga olish markazdagidek oson kechmadi. Yerlarni davlat tasarrufiga olish rejasiz, yetarli darajada tayyorgarliksiz va stixiyali ravishda kechdi. Fuqarolik urushi sabab markaz bilan aloqaning uzilishi, o‘lkada boshlangan mustaqillik uchun qurolli qarshilik va ocharchilik uning tor doirada o‘tkazilishiga sabab bo‘ldi.

Bolsheviklarning yer masalasidagi tamoyillari to‘ntarish kuni – 1917-yil 27-oktyabrda e’lon qilingan “Yer to‘g‘risida”gi dekretda bayon etildi. Yerga bo‘lgan mulk egaligi hech qanday to‘lovlarsiz bekor qilindi, uni sotish, sotib olish, ijaraga berish va tasarruf qilish taqiqlandi. Ushbu qonun bajarilmasa, javobgarlikka tortish belgilandi [2. B. 35]. Rasman yerga xususiy egalik bekor qilindi. Ushbu dekret tamoyillari asosida 1917-yil 6 dekabrda Butunrossiya Xalq Komissarlari Soveti (XKS) raisining maxsus qarori qabul qilinib, “Yer to‘g‘risida”gi dekretni hayotga tatbiq etish, davlat ahamiyatiga molik barcha xususiy yerlar uyezd va oblast yer qo‘mitalari tomonidan ro‘yxatga olinishi belgilandi [3. B. 244–245].

Butunrossiya Markaziy Ijroiya Komiteti (MIK) va XKS tomonidan 1918-yil 27-yanvarda “Yer sotsializatsiyasi to‘g‘risidagi asosiy qonun” qabul qilindi. 53 moddadan iborat ushbu qonunning 2-moddasida barcha yerlar mehnat bilan kun kechiruvchi xalq foydasiga o‘tkazilishi, 3-moddada esa yerdan foydalanish huquqi faqatgina yerga o‘z kuchi bilan ishlov beruvchilarga berilishi belgilandi. Qonunning 20-moddasida yerdan qishloq xo‘jaligi maqsadlarida foydalanish huquqiga ega bo‘lganlar ro‘yxati keltiriladi: qishloq xo‘jalik kommunalari, shirkatlari, jamoalari, alohida oila va shaxslar (agar foyda olish maqsadida foydalanilmasa) [4. B. 10–10 orq]. Shuningdek, ushbu qonun bilan mahalliy va markaziy Sovet hokimiyatining yer bo‘limlari vazifalari ham belgilandi. Mehnatsiz kun kechirayotgan (ishchilar yollash yoki ijaraga berish orqali) xo‘jaliklar, barcha jonli va jonsiz mehnat qurollari, xo‘jalik binolari bilan birgalikda sovet hokimiyati organlariga o‘tkazilishi ham ko‘rsatib o‘tildi. Bundan tashqari, Turkiston o‘lkasi ishchi, soldat va dehqon deputatlari 4-favqulodda syezdida 1917-yil 4-dekabrdagi Nizomga muvofiq yer qo‘mitalari tuzishni qo‘llab-quvvatlash hamda yer qo‘mitalarini davlat hokimiyati organi sifatida e’tirof etilgan vakolatlarini hayotga tatbiq etish zarurligi haqida qaror qabul qiladi [5. B. 267]. Biroq Yer qo‘mitalarini tuzishning o‘zi katta qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi. Mahalliy boylar va o‘rtahollar ham yer qo‘mitalari tuzishga xalal berishga, vakillarni qishloqlarga kiritmaslikka harakat qildilar. Ko‘plab qishloqlarda yer islohoti haqida tushuncha berish maqsadida kelgan targ‘ibotchilar quvib yuborildi. 1918-yil 23-aprelda Turkiston o‘lkasi Sovetlarining 5-syezdida bolsheviklar fraksiyasining qaroriga asosan yer-suv qo‘mitalari tugatilib, uning vakolatlari viloyat, uyezd va volost sovetlarining yer-suv bo‘limlariga o‘tkazib yuborildi.

Bo‘limlar faoliyatida ham qiyinchiliklar juda ko‘p edi, ayniqsa, bo‘limda mulkdor qatlamning ko‘plab vakillari kirib qolgan va bu mehnatsiz xo‘jaliklarni ro‘yxatga olishning ortga surilishiga sabab bo‘lardi. Masalan, Samarqand viloyati Samarqand uyezdi Mahalla volosti yer bo‘limi instruktori mehnatsiz kun kechiruvchi xo‘jaliklarni ro‘yxatga olish komissiyasi tarkibidagi Yusufbek Mirzayoqubov ustidan arz qilib, uning o‘zi katta yer egasi ekani, shu sabab ro‘yxatga olishni turli bahonalar bilan ortga surayotgani bo‘yicha murojaat qiladi. Volost soveti 1918-yil 18-mayda bu masalani ko‘rib chiqadi, Yusufbek Mirzayoqubov ishdan bo‘shatiladi [3. B. 63]. Bunday holat boshqa hududlarda ham kuzatilgan. Xususan, 1919-yil avgustida Farg‘ona viloyati Andijon uyezdida natsionalizatsiya bo‘yicha instruktorlar

orasida o‘tkazilgan tozalovda 32 nafar instruktordan faqat 13 nafari qoladi, qolgan 19 tasidan 8 tasi natsionalizatsiya bo‘yicha instruksiya haqida bilimga ega emas, deb topilgan, qolgani “yot unsur” sifatida chetlatilgan [6. B. 86].

Ayni damda ko‘chirib keltirilgan aholi tomonidan sovetlar nomi bilan boshlangan rekvizitsiya mahalliy aholini talashga aylanib ketdi. Toshkent ishchi va soldat deputatlari Sovetining oziq-ovqat seksiyasining 1917-yil 7-dekabrdagi yig‘ilishida rekvizitsiyani o‘tkazish bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar belgilandi. Unga ko‘ra, rekvizitsiya Toshkentning Eski shahar qismida o‘tkazilishi belgilandi. Rekvizitsiya komissiyalari 10 nafardan kam bo‘lmasligi, har to‘rt ro‘yxatga oluvchidan 1 tasi mahalliy millat vakili bo‘lishi, bunday guruhlarni qo‘riqlash uchun qizil gvardiya, 1– va 2-janubiy o‘qchi otryadlari askarlaridan har biri 20 kishilik bo‘lgan harbiy guruhlar tuzish ko‘zda tutildi [5. B. 47]. Bunday guruhlar go‘yo chayqovchi va olibsotarlardan donni musodara qilish uchun reydlar o‘tkazdi. Bu holat mahalliy muxtoriyatchilik harakati yo‘q qilinishi natijasidagi siyosiy taranglikni avj oldirishini inobatga olib, mahalliy aholiga biroz yon berish va evaziga sovetcha muxtoriyat tuzish uchun to‘lov olish maqsadida dastlab Turkistonda “favqulodda komissar” Pyotr Kobozev hamda RSFSR Millatlar xalq komissarligining ikki tatar rasmiysi Orif Klevleyev va X.Ibrohimovlar yuborildi [7. B. 72]. Ular boshqaruv organlariga va qayta saylovlar orqali sovetlarga mahalliy aholi vakillarini kiritishga kirishdilar. Shuningdek, sovetlardan boshqa partiya vakillari siqib chiqarildi. Markazning favqulodda komissari va uning vakillari sa’y-harakati bilan Toshkent Soveti bolsheviklari tomonidan avvalgi davrdagi mustamlakachilik siyosatining davom ettirilishi biroz bo‘lsa-da sindirildi. Bundan tashqari, aholi orasida targ‘ibot ishlariga zo‘r berildi. Parallel ravishda hukumat o‘zining asosiy tezislarini hayotga tatbiq etishga kirishdi.

Partiya va sovet hukumati yig‘ilishlarida Turkistondagi barcha yerlar yirik zamindorlarga tegishli ekanligi, ulardan yerlarni tortib olib, kambag‘al dehqonlarga taqsimlash sovetlarning birinchi vazifasi ekani qat’iy belgilab olindi. Biroq bu davrdagi o‘lkaning agrar tuzilishi Rossiyadan ancha farqlarga ega bo‘lib, buni quyidagi jadval ma’lumotlari ham tasdiqlaydi.

1-jadval

1917-yilda Turkiston o‘lkasida dehqon xo‘jaliklarining yerga egaligi holati [8. B. 50]

Xo‘jaliklarning yerga egalik qilish miqdori	Farg‘ona viloyati bo‘yicha		Samarqand viloyati bo‘yicha	
	xo‘jaliklar %	ulardagi yerlar % i	xo‘jaliklar %	ulardagi yerlar % i
1 desyatinagacha yeri bor xo‘jaliklar	51	9,8	24	2
1 des.dan 3 des.gacha yeri borlar	30,1	23,4	26,1	8,2
3 des.dan 5 des.gacha yeri borlar 3 дес.дан 5 дес.гача ери борлар	9,1	15,2	14,2	9,4
5 des.dan 10 des.gacha yeri borlar	6,3	20,3	18,8	23,2
10 des.dan 20 des.gacha yeri borlar	2,5	15,3	11,8	28,2
20 desyatinadan ko‘p yeri bor xo‘jaliklar	1	16	5,6	29

Jadvaldan ko‘rinadiki, tabaqalanish eng yuqori bo‘lgan Farg‘ona viloyatida 10 desyatinagacha yeri bor xo‘jaliklar umumiy xo‘jaliklarning 96,5 foizini tashkil etgani holda, umumiy yerlarning 68,7 foiziga egalik qilgan. Samarqand viloyatida esa, 10 desyatinagacha yeri bor xo‘jaliklar umumiy xo‘jaliklarning 83,1 foizini tashkil etgan va umumiy yerlarning qariyb 43 foiziga egalik qilgan. Samarqand viloyatida 20 desyatinagacha yerga ega xo‘jaliklar soni ham ko‘p bo‘lib, ular umumiy xo‘jaliklarning deyarli 12 foizini tashkil qilgan. Bundan xulosa qiladigan bo‘lsak, bolsheviklarning yerlar Turkistonda ham Rossiyadagi kabi bir hovuch boylar qo‘lida to‘plangan, degan qarashlari haqiqatga unchalik mos kelmaydi.

Sovetlar inqilobiy faoliyatining ikkinchi bosqichi – yer-mulklarni natsionalizatsiya qilish ham boshlandi. Bunda birinchi navbatda, eski tuzum davrida ko‘chib kelgan yirik yer-mulk egalari, shirkatlarning mulklari natsionalizatsiyasi ko‘zda tutildi. Ko‘plab tadqiqotlarda aksari-

yat ko‘chirib keltirilgan yevropalik xo‘jaliklarning yer-mulklari natsionalizatsiya qilingani haqida xulosalar beriladi. Darhaqiqat, bu bir tomondan, mahalliy aholini sovetlarning mustamlakachilikdan holi ekanligiga ishonchini oshirar, yangi tuziladigan sovetcha muxtoriyatni qo‘llashlari uchun dastak bo‘lardi. Boshqa tomondan esa, aslida bu vaqtda mahalliy mulkdorlar yerlarini tortib olish juda katta resursni talab qilar, shundoq ham jug‘rofiyasi kengayayotgan qurolli qarshilik harakatini yanada kuchaytirib, uning saflariga yangi kuchlar qo‘shilib ketishiga xizmat qilardi. Lekin, arxiv hujjatlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatmoqdaki, nafaqat yevropa millatiga mansub aholi vakillari, balki ko‘plab yirik mahalliy mulkdorlar yerlari ham natsionalizatsiyaga tortilgan.

1918-yilning 21-yanvarida Yer ishlari xalq komissarining yer islohotini o‘tkazish bo‘yicha dekreti chiqarildi, unda “Barcha mehnatsiz kun ko‘ruvchi xo‘jaliklarning yerlari, qishloq xo‘jalik inshootlari, jonli va jonsiz mehnat qurollari va zaxiradagi barcha qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, mahalliy xo‘jalik ahamiyatiga ega bog‘lar va o‘rmonlar bilan birgalikda yer qo‘mitalari tasarrufiga o‘tkaziladi” deyilgan edi [2. B. 245]. Yevropa millatiga mansub yirik mulkdorlar yerlarini natsionalizatsiya qilish “Vladimir Alekseyev” savdo-sanoat shirkati bog‘larini tortib olishdan boshlandi. 1918-yil 25-fevral kuni TASSR XKSning qaroriga ko‘ra shirkatning bog‘lari, xo‘jalik binolari milliy mulk deb e’lon qilindi. Bog‘ni parvarishlash uchun xarajat miqdori katta bo‘lgani sabab uni yersiz dehqonlar o‘rtasida taqsimlanmasligi belgilandi [9. B. 80]. Shu yilning 5-martida Toshkent uyezdidagi katta yerlarga egalik qiluvchi aka-uka Ivanovlarning “Qoplonbek” (121 desyatina bog‘, 9 desyatina uzumzor, 30 desyatina bedapoya, jami 154 desyatina yer) va “Kensay” mulklari ham yuqoridagi tartibda tortib olindi va saqlash uchun yer ishlari komissarligi tasarrufiga o‘tkazildi. Bog‘lar juda katta maydonni egallagan va sanoat ahamiyatiga molik edi [9. B. 114]. 18-martda yana bir katta xo‘jalik – Turkiston qishloq xo‘jaligi va sanoat shirkatiga qarashli 40 ming tup mevali daraxtga ega 250 desyatina bog‘, 45 desyatina bedazor, 65 desyatina sanoat madaniy ekinlariga ega “Eski Toshkent” mulki ham natsionalizatsiyaga tortildi. Bundan tashqari, shu kuni yana bir qaror bilan aka-uka Yaushevlarning 405 desyatina yeri (sholi, beda, paxta maydonlari), paxta-guruch tozalash zavodi, tegirmon, temirchilik ustaxonasi, elektr stansiyasi va boshqa barcha mehnat qurollari (11 ta ot, 94 ta ho‘kiz, 19 ta sigir, 11 ta buzoq, 24 ta plug, 7 ta borona, seyalka, 4 ta kultivator) milliy mulk sifatida tortib olindi [10. B. 4-7].

Yer-suv qo‘mitalari tomonidan shakllantirilgan ro‘yxat asosida 1918 yil 26 mart kuni Xalk Komissarlar Sovetining tegishli qarori bilan Toshkent va uning atrofidagi “mehnatsiz kun kechiruvchi” deb topilgan quyidagi sanoat ahamiyatiga ega qishloq xo‘jaligi mulklari barcha xo‘jalik binolari, jonli va jonsiz mehnat qurollari, barcha qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan birgalikda natsionalizatsiya qilindi:

t/r	Xo‘jalik egasi	tortib olingan yer miqdori (desyatina)	t/r	Xo‘jalik egasi	tortib olingan yer miqdori (desyatina)
1	Davidov	87	17	Shandel	27
2	Jemchujnikov	40	18	Arikyans	47
3	Mashkov	75	19	Dmitriyev	86
4	Smelnitskiy	30	20	Boruxov	30
5	Filaretov	23	21	Tedosyans	20
6	Greber	18	22	Rjepetskiy	80
7	Kovalev	40	23	Barbashin	60
8	Olenev	90	24	Eshonhoji	20
9	Nikitina	14	25	Zaxo	30
10	Jo‘rabek	20	26	Pugasova	30
11	Pervushin	24	27	Yevstifeyeva	57
12	Kryukov	15	28	Yaushevlar	90
13	Sokolovskiy	17	29	Shubert	24
14	Normatboy	70	30	Malishev	12
15	Korevitskiy	21	31	Chernyak	40
16	Kurilovlar	75	32	Georgbiyane	25

Yuqoridagi ro‘yxatda nomlari keltirilganlar Turkistonning yirik kapitalist, savdogar va mulkdorlari bo‘lib, ular orasida 2 nafar mahalliy millat vakili ham bor edi. Birgina shu qaror bilan aksariyati bog‘ va uzumzorlardan iborat 1337 desyatina yer sovet organlari tasarrufiga o‘tkaziladi [11. B. 132].

Bundan tashqari, uyezd yer qo‘mitalari taqdimnomasi bilan yer ishlari xalq komissarligi qarorlariga ko‘ra ko‘plab mahalliy mulkdorlar yerlari ham tortib olina boshlandi. Mahalliy zamindor va mulkdorlarning yerlarini tortib olish alohida ro‘yxat asosida hukumat qarori bilan emas, yakka tartibda ro‘yxatga olib, natsionalizatsiya qilindi. Bu esa dastlabki vaqtda faqatgina ko‘chib kelgan kapitalistlar yerlari tortib olindi, degan noto‘g‘ri xulosa qilinishiga sabab bo‘ldi. Bu asosan, 1918-yil aprelidan boshlandi. Dastlab, Turkiston muxtoriyatini tashkil etish va oyoqqa qo‘yishda katta xizmatlari singgan Saidnosir Mirjalilov hamda Mirkomilboy Mirmo‘minboyevning mulklari musodara qilindi. 1918-yil 18-fevralida Turkiston ishchi, soldat va dehqon deputatlari Ijroiya kengashi yig‘ilishida Saidnosir Mirjalilovning mol-mulkini ro‘yxatga olish va musodara qilish bo‘yicha Mirskiy, Nexoroshev, Karaulov va Aytqulovlardan iborat komissiya tayinlandi va aprel oyida uning mulklari to‘liq musodara qilindi. Aprel oyining ikkinchi o‘n kunligida Turkiston o‘lkasi XKS qarori bilan otib tashlangan Mirkomilboy Mirmo‘minboyevning barcha mulklari, zavodlari, yerlari, hisob raqamdagi pullari milliy mulk deb e’lon qilinib, sovet organlari tasarrufiga olindi [3. B. 42]. Shu yilning aprelida Bulatov volostida Azimqul ismli mulkdordan 2 ming desyatina va Rixsiboydan 500 desyatina, Zangiota volostidagi To‘raxo‘ja Dadajonovning esa 200 desyatina, Rustamboy Xolmirzayevning 120 desyatina, Navro‘zboyevning 250 desyatina yerlari tortib olindi [3. B. 57] 1918-yil aprelidan 1919-yil apreliga qadar Skobelev uyezdida 22 xo‘jalik natsionalizatsiya qilingan, ulardan 12315 desyatina yer musodara qilingan. Qo‘qon va Namangan (1990 desyatina yer musodara qilinishi lozim bo‘lgan) uyezdlarida qurolli qarshilik harakati sabab yer-suv islohoti o‘tkazish amalga oshirilmagan. Andijonda esa barcha yirik yer egalarining, ko‘proq yevropalik mulkdorlarning yerlari tortib olingan.

Natsionalizatsiya qilishda aniq ko‘rsatmalar ishlab chiqilmagani mahalliy yer ishlari bo‘limlarining o‘zboshimchalik bilan ro‘yxatlar tuzishiga, bunda hisobot ortidan quvilishiga ham sabab bo‘ldi. Xususan, boy-mulkdor, o‘rtahol va kambag‘allik chegarasi aniq ko‘rsatilmagani ko‘p inspektorlarning mustaqil ravishda qaror qabul qilishlariga olib keldi. Masalan, Samarqand viloyati Toyloq qishloq jamoasidagi Komil Shokirovning 13 tanob yeridan 6 tanobi o‘zida qoldirilib, qolgan 7 tanobi davlat hisobiga o‘tkazilgan bo‘lsa, Baxriddin Shamsiddinovning 12 tanob, Dovud Komilovning 2,7 tanob yeri natsionalizatsiya qilinadi [3. B. 64].

Turli hududlarda instruktorlar ish olib borish jarayonida ko‘proq o‘zi ish olib borayotgan hudud sharoitidan kelib chiqib qarorlar chiqarishgan. Ko‘plari instruksiyani bilmagan yoki unga amal qilmagan, o‘z bilganicha ishlagan. Barcha instruktorlar o‘z faoliyati haqida hisobot berganlar. Ana shunday hisobotlardan qishloqlarda natsionalizatsiya jarayonlari qanday o‘tgani haqida batafsil ma’lumotga ega bo‘lish mumkin. Masalan, Farg‘ona uyezdi Marg‘ilon volostida ish olib borgan Yer ishlari komissarligi instruktori A.Shpir o‘z hisobotida ishni Beshbola qishloq jamoasida Abo Pinxasovning 218 desyatinadan iborat bog‘ va uzumzorlarini ro‘yxatga olishdan boshlaganini yozadi. Keyin shu qishloqdagi Sarimirza Mulla Boboyor Mirzasalimboyevning 52 tanob yeri yollanma mehnatdan foydalanilgani uchun tortib olinadi. Tortib olingan bog‘larni asrash va parvarishlash uchun bog‘ni ijaraga olib ishlovchilar yoki chorikorlar vaqtinchalik ishchi sifatida tayinlangan. Shuningdek, Lavrentevning 27 desyatina, Dovudboyevning 19 desyatina, Bushmanning vinochilik xo‘jaligi 15 desyatina yeri bilan natsionalizatsiya qilingan [3. B. 74]. Bu kabi yerlar foydalanish uchun qishloq xo‘jalik kommunalari va artellariga berilgan. Bu vaqtda esa kommuna va artellarni asosan yevropa millatiga mansub, ko‘chib kelgan aholi vakillari tashkil etgan. Bu esa xalq orasida “bolshavoylar yerimizni o‘rusqa olib beryapti” mazmunidagi gaplarning tarqalishiga olib kelgan. Ishning bunday tus olishi mahalliy aholining g‘azabini qo‘zg‘atdi va qurolli qarshilik harakatining yanada kuchayishiga olib keldi.

1918-yilning yozi va kuzida yerlarni ro‘yxatga olish davom etib, natsionalizatsiya qilinadigan mulklar soni ham ko‘payib bordi. Shu yil-

ning 10-oktyabr kuni Turkiston ASSR XKSning “Sanoat ahamiyatiga molik mehnatsiz kun kechiruvchi xo‘jaliklarni natsionalizatsiya qilish to‘g‘risida”gi qarori e’lon qilindi. Ushbu qarorda ko‘rsatilgan musodara qilinishi lozim bo‘lgan xo‘jaliklar ro‘yxati yil boshida, 26-mart kuni natsionalizatsiya qilingan xo‘jaliklar ro‘yxatiga qo‘shimcha sifatida qabul qilingani qayd etilgan. Qarorda natsionalizatsiya qilingan mulklar ro‘yxati quyidagicha keltiriladi [13. B. 79–80]:

t/r	Xo‘jalik egasi	tortib olingan yer miqdori (desyatina)	t/r	Xo‘jalik egasi	tortib olingan yer miqdori (desyatina)
1	Suxarev	14	38	Annenkov	14
2	Buvalko	8	39	Xlopsov	10
3	Korolev	8	40	Yevstifeyev	12
4	Zaxarov	14	41	Shreder	15
5	Balashev	12	42	Krasnitskiy	12
6	Balabanov	12	43	Goldberg	12
7	Astashov	8	44	Reyngart	10
8	Kasperovich	7	45	Umar Sarjonov	20
9	Lapin	8	46	Bilskiy	12
10	Karimjonov	12	47	Bichkov	18
11	Pobelyanskiy	14	48	Avanesov	21
12	Tver manufakturasi	4,5	49	Abolin	18
13	Tarsin	18	50	Pullo	15
14	Prozorov	7	51	Vatagin	15
15	Andreychuk	10	52	Sinelnikov	12
16	Galenkin	12	53	Konovalov	20
17	Trubachev	14	54	Miryoqub	28
18	Semich	15	55	Olimjonboyev	15
19	Yarmishko	18	56	Sabo	20
20	Juk	18	57	Dilevskiy	12
21	Orifxojiyev (Qo‘yliq yo‘lida)	15	58	Malkina	15
22	Ternovskaya	20	59	Plesnevich	30
23	Maslovskiy	10	60	Verderevskiy	30
24	Shister	12	61	Satayev	20
25	Shevchenko	6	62	Pletser	80
26	Simonova	8	63	Lyulyak	28
27	Lamzdorf	8	64	Eshonhoji (Keles)	18
28	Ponyatovskiy	27	65	Sakovich	15
29	Berdin	11	66	Pershivalov	8
30	Zaringa	8,5	67	Barbashin 3	70
31	Beletskiy	15	68	Goldberg	10
32	Bendetskiy	15	69	Abolin (Qorasuv)	19
33	Kotlev	7	70	Shindel (Parkent ko‘chasi)	4
34	Yevteyev	9	71	Drujkin	6
35	Iskandarov	8,5	72	Petrova	10
36	Kurilova	8,5	73	Chasovitini (qal’a atrofi)	6
37	Mayev	11	74	Kanayev (barcha yerlari)	100

Bundan tashqari, Kirillovlar yer uchastkasining ajralmas qismi bo‘lgan Shuvalovning 14 desyatina yeri 26-martdagi qaror bilan natsionalizatsiya qilingan, Tyumenevning Chimkent yo‘lidagi 128 desyatinadan iborat yeri ham shu yilning 13-sentyabridan milliy mulk deb e’lon qilindi. Jami 1355 desyatina yer uchastkalari amalda davlat tasarrufiga olindi. Ushbu yer uchastkalarining har biri bo‘yicha akt tuzilgan, ularning aksar qismi bog‘ va uzumzorlardan

iborat bo‘lib, alohida qimmatga ega va maxsus parvarishlangan. Bu bog‘larning aksariyati qismlarga bo‘lib taqsimlanishi yoki maxsus qarovsiz qolishi, katta xarajat qilinmasligi oqibatida zavolga yuz tutdi. Bog‘ egalarining mevani qayta ishlovchi sexlari va vinochilik korxonalari ham tortib olindi. Buning natijasida Turkistonning eng eksportbop mahsulotlar tayyorlash sohalaridan biri barbod qilindi.

Xususiy yer egalarini “jazolash” uchun boshqa choralardan ham foydalanish kuzatilgan. Masalan, Samarqand viloyati Samarqand uyezdi Yangiqozonariq volostida mulkdorlar iqtisodiy jazo chorasi sifatida to‘lov to‘lashga majburlangan. Volost Soveti yer ishlari bo‘limining 1918-yil 1-iyundagi yig‘ilishida 40 tanobdan ortiq yerga ega bo‘lgan barcha xo‘jaliklar 200 rubldan 1500 rublgacha kontributsiya to‘lashi haqida qaror chiqarilgan va amalga oshirilgan [3. B. 65]. Bunday holatlar butun Turkiston hududida kuzatilgan. Samarqand uyezdi Xo‘ja Ahror volosti yer bo‘limining 1918-yil oktyabr oyidagi yig‘ilishi qaroriga ko‘ra, Bovlixona qishlog‘ining 15 nafar mulkdorlaridan jami 2700 rubl, Bog‘ishamol qishlog‘ining 7 nafar yer egalaridan jami 1300 rubl, Xo‘ja Ahror qishlog‘ining 8 nafar mulkdorlaridan 2500 rubl, Xaymar qishlog‘i boylaridan esa 3200 rubl undirish belgilandi [3. B. 77–78]. Andijonda ham “boylar uchun soliq” solinib, viloyatdagi eng badavlat mulkdorlar o‘z mulkiga qarab turli miqdorda to‘lov to‘lashga majbur qilingan, eng ko‘p to‘lov Ahmadbek hoji Temirbekovga yuklatilgan. U 150 ming rubl to‘lov to‘lagan bo‘lsa, eng kami 3 ming rublni Mulla Hamroqul Norqulboyev to‘lagan. Viloyat bo‘yicha jami 53 nafar mulkdor va tadbirkorlardan 758 ming rubl pul yig‘ilishi ko‘zda tutilgan [15. B. 166]. Odatda bunday yig‘imlar amaldagi soliqlardan tashqari yig‘ilgan. Ayrim hollarda bunday ro‘yxatlarga o‘rtahollar ham kiritilgan va ularning ma’lum mulklari bo‘lsa-da, qo‘llarida naqd ko‘rinishida buncha mablag‘ bo‘lmagan yoki aksar hollarda 1917-yildagi qurg‘oqchilik sabab ko‘plari kam hosil va kam daromad olgan.

Umuman olganda, tortib olingan yer-mulklarning aksariyati Yer ishlari xalq komissarligiga hamda boshqa sovet hokimiyati organlariga, qishloq xo‘jalik kommunalari va artellariga berilgan. “Inqilob” va’da qilgan “ekspluatatorlar”ning yerlarini yersiz dehqonlar o‘rtasida taqsimlash deyarli amalga oshirilmadi. Yer-suv islohoti, sotsializm tushunchalari qishlog‘iga, keng dehqonlar orasiga kirib bormadi. Sovetlar mahalliy aholi uyushib kommunalarga birikishi va mulkdorlarga qarshi kurash boshlashini kutib, katta xatoga yo‘l qo‘ydi. Natsionalizatsiya qilingan yerlarning yevropalik aholi birlashgan kommunalariga berilishi esa juda katta norozilikka sabab bo‘ldi. Boshqa bir tomondan ocharchilik, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining yetishmasligi, qishloq xo‘jaligining zavolga yuz tutishi sovet hokimiyatining noto‘g‘ri iqtisodiy siyosati bilan qo‘shilib, hukumat oldiga katta muammolarni ko‘ndalang qilib qo‘ydi. Sovet hukumatining ayrim yig‘ilishlarida hatto xususiy mulkni tiklashga qaratilgan chaqiriqlar ham yangray boshladi [8. B. 71].

Yuqoridagi “omadsizliklar” sabab hukumat yer-suv islohotidan chekinishga majbur bo‘ldi, yer xususiy mulk sifatida bo‘lmasa-da, 1920-yil 4-martda Turkiston Sovetlari MIK tomonidan “Mehnatkash dehqonlarga yerlarini qaytarib berish to‘g‘risida”gi dekreti e’lon qilindi. Dekretga ko‘ra, o‘z mehnati bilan yoki oila a’zolari bilan, o‘z urug‘i bilan yoki chorikorning yollanma mehnatidan doimiy asosda foydalanmagan holda yerga ishlov berish mumkin bo‘ldi. Oxirgi berilgan huquqqa ko‘ra vaqtincha chorikor yollab yeriga ishlov berish mumkin edi. Bundan tashqari, mehnatsiz kun kechirayotgan, xususiy yer egalarining yerlari, agar ular sovet organlariga berib yuborilmagan bo‘lsa, mahalliy ovul va qishloq jamoalari tasarrufiga o‘tkazilishi belgilandi. Bunda o‘sha yerning sobiq egasi qishloq jamoasi tarkibida yerdan foydalanishi mumkinligi qayd etildi [15. B. 171].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Sovet hukumatining Turkistonda dastlabki yillarda zamindor mulkdorlarga nisbatan yuritgan siyosati, agrar masalada amalga oshirgan chora-tadbirlari, birinchidan, o‘lkadagi endigina shakllanayotgan kapitalistik munosabatlarga, bozor uchun mahsulot yetkazib berishni boshlagan qishloq xo‘jaligi sohalariga katta zarar yetkazdi. Xususan, qishloq xo‘jalik mahsulotlari, shuningdek, paxta yetishtirish 50-70 foizga, bog‘dorchilik mahsulotlari yetishtirish 60 foizga qisqarib ketishiga sabab bo‘ldi. Bu o‘lka aholisini, ayniqsa, dehqonlar hayotini og‘irlashtirib yubordi. Sovet hukumatining sotsialistik mafkurani targ‘ib qilib, mulklarni qayta taqsimlash

haqidagi targ‘iboti qishloq aholisi o‘rtasida deyarli qabul qilinmadi. Yerga bo‘lgan xususiy mulk huquqini yo‘qotishni kun tartibiga qo‘ydi va mulkdorlarning yerlarini natsionalizatsiya qilishni boshladi. Iqtisodiy taraqqiyot va farovonlikka erishish asosida manfaatdorlik yotishini inobatga olsak, bu o‘lka aholisi hayotini faqatgina yomonlashtirdi.

Adabiyotlar:

1. *Xolid A*. O‘zbekiston tavalludi: ilk SSSR davrida millat, imperiya va inqilob. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 424 b.

2. Туркестан в начале XX века к истории истоков национальной независимости. / Коллект авторов: Р.М.Абдуллаев, С.С.Агзамходжаев, И.А.Алимов и другие. – Ташкент: Шарк, 2000. – 672 с.

3. Социалистическое переустройство сельского хозяйства в Узбекистане (1917–1926 гг.) / Под редакцией: О.Джамалова, Р.Аминова, Т.Джураева. – Ташкент: Изд. АН УзССР, 1962. – 795 с.

4. Ўзбекистон Миллий архиви (Ўз МА), Р-29-фонд (ТАССР Ер ишлари халқ комиссарлиги), 1-рўйхат, 126а-йиғмажилд.

5. Ўз МА, 25-фонд (ТАССР Халқ Комиссарлари Совети), 1-рўйхат, 4-йиғмажилд.

6. Ўз МА, Р-29-фонд, 3-рўйхат, 1516-йиғмажилд.

7. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. /Тузувчилар: М.Жўраев, Р.Нуруллин, С.Камолов ва бошқ. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 688 б.

8. *Зелкина Е.* Очерки по аграрному вопросу в Средней Азии. – Москва: Изд. Коммунистической Академии, 1930. – 128 с.

9. Ўз МА, Р-25-фонд, 1-рўйхат, 35-д йиғмажилд.

10. Ўз МА, Р-29-фонд, 3-рўйхат, 1086-йиғмажилд.

11. Ўз МА, Р-29-фонд, 3-рўйхат, 935-йиғмажилд.

12. Андижон вилоят давлат архиви (АВДА), 230-фонд, 2-рўйхат, 4-йиғмажилд.

13. Ўз МА, Р-29-фонд, 3-рўйхат, 1168-йиғмажилд.

14. АВДА, 59-фонд, 1-рўйхат, 1-йиғмажилд.

15. Ўз МА, Р-17-фонд (ТАССР Марказий Ижроия Қўмитаси), 1-рўйхат, 43-йиғмажилд.

CHANGES IN THE AGRARIAN SECTOR IN THE TURKESTAN ASSR: LAND AND WATER REFORM AND THE BEGINNING OF THE STRUGGLE AGAINST THE OWNERS

Sharofiddin K. Hoshimjonov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2023. 1(69). 40-49.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: *Turkestan ASSR, Decree “On Land”, nationalization, owner, land and water reform, private property, exploiter, landless peasant, class struggle.*

The principles of the Bolsheviks on the issue of land were stated in the Decree “On Land” announced on October 27, 1917. Ownership of land was abolished, sale, purchase, lease and disposition of land was prohibited. Failure to comply with this law will result in prosecution. On January 27, 1918, the All-Russian Central Executive Committee and the Soviet of People’s Commissars adopted the Basic Law on Land Socialization. Article 2 of this law, which

consists of 53 articles, stipulates that all lands will be transferred to the people who make a living by labor, and Article 3 stipulates that the right to use land is given only to those who cultivate the land by their own efforts.

The second stage of the revolutionary activities of the Soviets – the nationalization of property – also began. First of all, the nationalization of the properties of large landowners and companies that moved during the old regime was envisaged. On January 21, 1918, the People's Commissar of Land Affairs issued a decree on land reform, in which "The land of all subsistence farms, agricultural structures, live and inanimate labor tools and all agricultural products in reserve, together with parks and forests of local economic importance, shall be will be transferred to the management of the committees" it was said. On February 25, 1918, according to the decision of the TASSR HKS, the company's gardens and farm buildings were declared national property. Due to the high cost of maintaining the garden, it was decided not to distribute it among the landless peasants.

On March 5, 1918, the "Koplonbek" (121 tens of orchards, 9 tens of vineyards, 30 tens of uncultivated land, total 154 tens of land) and "Kensai" properties of the Ivanov brothers, who own large lands in Tashkent uezd, were confiscated in the above order, and land works for preservation transferred to the commissariat. On March 18, the property of "Eski Tashkent" with 40,000 bushels of fruit trees, 250 acres of orchards, 45 acres of fields, and 65 acres of industrial cultural crops owned by another large farm – Turkestan Agricultural and Industrial Company was nationalized. In addition, on the same day, by another decision, the Yaushev brothers received 405 tenths of land (rice, alfalfa, cotton fields), a cotton and rice ginning plant, a mill, a blacksmith's workshop, a power station, and all other working tools (11 horses, 94 oxen, 19 cows, 11 calves, 24 ploughs, 7 harrows, seed drills, 4 cultivators) were seized as national property.

The lack of clear guidelines for nationalization has led local land departments to compile arbitrary lists and chase reports. In particular, the boundaries between rich, middle-class and poor were not clearly defined, leading many inspectors to make their own decisions. Instructors in different areas made decisions based on the conditions of the area where they were working.

In general, the policy of the Soviet government towards the landowners in Turkestan in the early years, the measures taken in the agrarian issue caused great damage to the newly formed capitalist relations in the country, and to the agricultural sectors that started supplying products for the market.

References:

1. Xolid, A. (2022) O'zbekiston tavalludi: ilk SSSR davrida millat, imperiya va inqilob [Birth of Uzbekistan: Nation, Empire and Revolution in the Early USSR]. Tashkent: Akademnashr.

2. Abdullayev, R.M (ed.) (2000) Turkestan v nachale HKH veka k istorii istokov nacional'noj nezavisimosti. [Turkestan at the beginning of the twentieth century to the history of the origins of national independence]. Tashkent: Shark.

3. Dzhamalova, O. (ed) (1962) Socialisticheskoe pereustrojstvo sel'skogo hozyajstva v Uzbekistane (1917–1926 gg.) [Socialist reconstruction of agriculture in Uzbekistan (1917-1926)]. Tashkent: Izdatel'stvo AN UzSSR.

4.O'zbekiston Milliy Arxivi (O'zMA) [National archive of Uzbekistan. (NA of Uz)], Fund R-29, List 1, collection 126a.

5. NA of Uz, Fund 25, List 1, collection 4.

6. NA of Uz, Fund R 29, List 3, collection 1516.

7. Jo'rayev, M. (ed.) (2000) O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida [New history of Uzbekistan. The second book. Uzbekistan during the Soviet colonial period]. Tashkent: Sharq.

8. Zelkina, E. (1930) Ocherki po agrarnomu voprosu v Srednej Azii. [Essays on the agrarian question in Central Asia]. Moscow: Izdatel'stvo Kommunisticheskoj Akademii.

9. NA of Uz, Fund R-25, List 1, collection 35.

10. NA of Uz, Fund R-29, List 3, collection 1086.
11. NA of Uz, Fund R-29, List 3, collection 935.
12. Andijon viloyat davlat arxivi [State Archive of Andijan region. (ARSA)]. Fund 230, List 2, collection 4.
13. NA of Uz, Fund R-29, List 3, collection 1168.
14. ARSA,Fund 59, List 1, collection 1.
15. NA of Uz, Fund R-17, List 1, collection 43.

Muallif haqida ma'lumot:
XOSHIMJONOV Sharofiddin Kozimjon o'g'li – Andijon davlat universiteti O'zbekiston tarixi kafedrasi doktoranti. E-mail: khoshimjonov@mail.ru